

ASKIYA VA UNING BADIY XUSUSIYATLARI MASALASI

Xolbutayev G'ayratbek Oybek o'g'li

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: gayratbek19912705@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada askiyada mavzu ijrochilarining mahorati, topag'onligi, hozirjavoblighi, tafakkurining o'tkirligini sinash maqsadida hayotimizning istalgan ijtimoiy masalasidan iborat bo'lishi, askiya yumorga asoslanganligi, hazil asosiga qurilishi, kulgining maydonga kelishiga sabab bo'lishi, muayyan mavzu doirasida metaforik mazmundagi so'zlar va iboralarning qo'llanilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: askiya, folklor, shirinkor, zakiy, payrov, o'tkir zehn, kulgi.

АСКИЙ И ЕЕ ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА

Холбутаев Гайратбек Ойбек угли

доктор философии по филологии (PhD)

e-mail: gayratbek19912705@mail.ru

Аннотация: В данной статье рассмотрено мастерство исполнителей, отзывчивость и остроты слов исполнителей, askiya основана на юморе, построена на основе юмора, вызывает смех, использование метафорических слов и словосочетаний в рамках конкретной темы.

Ключевые слова: askiya, фольклор, ширинкор, закий, пайров, остроумие, смех.

THE PROBLEM OF ASKIA AND ITS ARTISTIC CHARACTERISTICS

Holbutaev Gayratbek

Doctor of Philosophy in Philology (PhD)

e-mail: gayratbek19912705@mail.ru

Abstract: This article discusses the skill of the performers, the responsiveness and sharpness of the words of the performers, askiya is based on

humor, built on the basis of humor, causes laughter, the use of metaphorical words and phrases within a specific topic.

Key words: *askiya, folklore, shirinkor, zakiy, payrov, wit, laughter.*

KIRISH

Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining turmush tarzi, boy tarixi va madaniyati, ular mazmunidan kelib chiqadigan didaktik xulosalar, xalqona pand-nasihatlarini o'zida ixcham badiiy aks ettirgan askiyalarning so'z san'ati taraqqiyoti va yosh avlod tarbiyasidagi o'rnini o'rganishga e'tibor oshirildi. Mamlakatimizda milliy qadriyatlarimizni, shu jumladan milliy askiya va qiziqchilik san'atini asrab-avaylash, keng targ'ib etish va kelgusi avlod uchun nomoddiy madaniy meros sifatida yetkazish maqsadida 11.07.2023 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-222-sonli "Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori [1] bunga yaqqol misol bo'la oladi. O'zbek xalq og'zaki ijodidagi so'z san'ati bilan aloqador folklor asarlarini o'zlikni ifoda qilishning og'zaki shakllaridan biri sifatida har tomonlama chuqur o'rganib, bu badiiy matnlar xalqimizning ijtimoiy, siyosiy, badiiy-estetik qarashlari bilan bevosita bog'liq holda shakllanganligini yaxlit holda kuzatish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Askiya o'zbek folklorining mustaqil janri sifatida XX asrning boshlarida dastlab etnograflar tomonidan o'rganila boshladi. Bu borada A.L.Troitskayaning xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi [41]. Olima o'zining o'zbeklar haqidagi kuzatishlari va dala yozuvlari asosida askiyaning xalq orasida qadimdan qiziqchilar tomonidan ijro etilishi, uning ba'zi turlari borasida o'z mulohazalarini bayon qiladi. Jumladan, tutol askiya shaklining yo'qolib ketgan ko'rinishi borasida mulohazalarini bildiradi. XX asr o'rtalarida atoqli folklorshunos Hodi Zarifov rahbarligida R.Muhamadiyev o'zining nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan [10]. Askiya R.Muhamadiyev tomonidan qo'lga kiritilgan nazariy xulosalar asosida o'zbek folklorining mustaqil janri sifatida Oliy ta'lim muassasalari

darsliklaridan o‘rin oldi [11]. Yangi asrga kelib o‘zbek folklorining kulgiga asoslangan askiya janri o‘zbek tilshunosligida lisoniy jihatdan tadqiq etildi [3]. Biroq xalq ijodida kulgi muammosiga bag‘ishlab jahon ilm-fanida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan [23-27]. Xorijlik tadqiqotlar kulgining psixologik mohiyatini ochib berish, kulgining ijtimoiyligi va siyosiy vazifalari kulgi san’atning alohida ko‘rinishi sifatida va umuman kulgini alohida estetik hodisa sifatida o‘rganishgan. O‘zbek filologik ilmida R.Muhamadiyev askiyaning folklor janri ekanligini asoslagan bo‘lsa, X.X.Do‘smatov askiyaning lisoniy masalalarini tadqiq etgan, xolos. Kulgiga asoslangan askiya janri matnlarining psixofolkloristik tadqiq etish, komik matnning tinglovchi ruhiyatiga ta’siri, askiyaning kulgi nazariyasiga mutanosibli kabi masalalar hamon dolzarbligicha qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada askiyada mavzu ijrochilarining mahorati, topag‘onligi, hozirjavoblighi, tafakkurining o‘tkirlikini sinash maqsadida hayotimizning istalgan ijtimoiy masalasidan iborat bo‘lishi, askiya yumorga asoslanganligi, hazil asosiga qurilishi, kulgining maydonga kelishiga sabab bo‘lishi haqida so‘z boradi. Askiyalarning ma’naviy hayotimiz va xalqimiz badiiy tafakkuri taraqqiyotida tutgan o‘rni, askiya matnlari badiiyatining o‘ziga xosliklari, askiya ijrochilarining ijro uslubi va mahorat qirralari alohida tadqiq etish zarurati ochib berildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Insoniyat tafakkur tarixida kulgiga asoslangan va odamlarning kulgi qo‘zg‘ash orqali kayfiyatini ko‘tarishga qaratilgan janrlardan biri bo‘lgan o‘zbek askiyalari o‘zining mavzu ko‘lami bilan alohida ajralib turadi. Askiyalarda mavzu folklorning boshqa janrlaridagiga nisbatan farqlanadi. Farqlanishi shundaki, aksariyat hollarda askiyada mavzu tashkil etilayotgan tomosha talablari doirasida tanlanadi. Askia janri o‘zining yashovchanligi bilan ham ajralib turadigan folklor janridir. Bu janr o‘zbek xalqining ma’naviy qiyofasini, dunyoqarashini, estetik va badiiy tafakkurining ko‘lamini, aql-u zakosini o‘zida aks ettiruvchi og‘zaki ijod janri sifatida hozirgi kunda ham rivojlanib kelmoqda. Ayni paytda askiyalar bayramlarda, xalq sayllarida, festivallarda, turli tadbirlarda, to‘ylarda askiyachilar

tomonidan ijro etiladi. Bugungi kunda ham askiya janri o'zining mavzu ko'lamini yanada kengaytirib bormoqda, "Boks", "Futbol", "Telefon" kabi zamonaviy mavzulardagi askiya payrovlari yaratilmoqda. Shuningdek, mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlarimiz va urf-odat, marosimlarimizni o'zida aks ettiruvchi "Kurash", "Kelin tushdi" kabi mavzularda payrovlar ham yaratilmoqda.

Askiya mavzusining shakllanishida tashkil etilayotgan tadbirning mavzusi, maqsadi ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Navoiy tavalludiga bag'ishlangan adabiy kechada ijro etiladigan payrov – "Navoiyga bag'ishlangan payrov", "Bobur tavalludiga payrov", "Festival uchun payrov" kabilar shular jumlasidandir. Askiyada badihago'ylik (improvizatsiya) yetakchilik qiladi, ayrim payrovlar cho'zilib ketadi, ayrimlari qisqaroq bo'ladi.

Askiya mavzusi nafaqat ijro etiladigan asarning tematik doirasini, balki uning semantik va hissiy vazifalarining shakllanishiga ham xizmat qiladi. Askiya mavzusining tanlanishi va askiyachilarga askiya talablari darajasini belgilashdagi ahamiyati mavzuning badiiy-estetik vazifalari kengayishi uchun xizmat qiladi. Askiya ijrochilari tadbir mantiqiy mavzusini komik holatda badiiy-estetik qirralarini ochib berish uchun ba'zan bir masalaga yoki predmetning tavsifiga takror-takror turli tavsiflar bilan murojaat qiladilar. Askiya ijrochilarining gradatsion yondashuvi, ularning metaforik tavsiflarining kuchayishi tinglovchilar hissiyotiga ta'sirning kuchayishiga, tinglovchilar auditoriyasida kulgining qahqahaga aylanishiga olib keluvchi ijro uslubi sifatida ham qaralishi lozim.

Askiyaning mavzu masalasi hozirga qadar askiya san'ati yuzasidan yaratilgan tadqiqotlarda alohida nazariy muammo qilib olinmagan. Xususan, askiya janrining dastlabki tadqiqotchisi R.Muhamadiyevning dissertatsiya ishida ham payrov turlari, askiya shakllari, askiyaning badiiyatida sujet tizimi va fikrning mantiqiy izchilligi borasida mulohazalar bildirilsa-da, askiyada mavzuning tanlanishi va mavzuning nazariy xususiyatlari borasida to'xtalinmaganligini kuzatamiz [10].

Ko'rinadiki, payrovlarda mavzu yetakchilik qiladi va askiyachilarning dialogik yoki polilogik nutqi vositasida ifodalanayotgan kichik voqealar umumiy

bir chegara doirasida yaxlitlashadi. Askiyalarda har bir askiyachi tomonidan tasvirlangan kichik voqeliklar, motivlar bo'lib, ular sujet tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Adig folklorida satira va yumor muammolarini tadqiq etgan folklorshunos N.M.Chuyakova o'zining doktorlik dissertatsiyasida adig latifalarining mavzu ko'lami borasida gapirib, mavzuning asar fabulasining shakllanishida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [28]. Darhaqiqat, askiyalarda mavzu tasvirlanajak voqea-hodisalarning mazmuniy chegarasi bo'lish bilan birga sujetning shakllanishiga ham o'z hissasini qo'shadi. Odatda, askiyachilar mavzuni belgilab olishadilar va mana shu mavzu doirasida voqea-hodisalarni to'qishadi. Ular tomonidan talqin qilinayotgan voqealar, albatta, o'zining tag ma'nosi bilan tinglovchilarning kulgisiga sabab bo'lishi shart. Shuningdek, askiyachi mavzudan chetlamasligi, qo'pol va shaxsning jismoniy kamchiliklarini tanqid ostiga olmasligi askiya talablarida belgilab beriladi. Askiya ijrochisining poetik mahorati uning mavzu doirasida so'z o'yini tashkil etishi va kulgi qo'zg'ay olishida namoyon bo'ladi. Masalan, tilshunoslik mavzusidagi askiyaning tahliliga e'tibor qaratsak.

“Til” payrovi

1-Askiyachi: Jo'rttaga luqma soldim-da, qarasam, gapning **egasini** aytasiz-u, **kesimiga** hayron bo'lib turibsiz.

2-Askiyachi: Adashtirmay turing, yana nomingizni **olmoshtirib**, sizga **ergash bo'laklari** bu, deb o'tirmayin.

1-Askiyachi: Juda **sodda gap** qilasiz-da!

2-Askiyachi: Bo'lmasa, **siz yoyiq gapga** ko'nasizmi?

1-Askiyachi: Keling, birovning **ko'chirma gapiga** mojaro qilib o'tirmaylik, yana sizning **fe'lingiz** buzilib qolmasin.

2-Askiyachi: Qiziqsiz-a, mening **fe'lim** har narsaga buzilaveradimi? Nima, mening **fe'lim o'tgan zamon fe'limidi?**

1-Askiyachi: Nega bo'lmasa mendan hadeb **so'zimning o'zagini** so'rayverasiz! **Hozirgi zamon fe'lingiz** shunaqami?

Ko'rinadiki, askiyachilar mavzuni tilshunoslikka doir atamalar bilan chegaralashgan. Bu o'rinda mavzu askiyachilarni voqea-hodisalarni tasvirlash

chegarasini belgilab bergan. Har bir ijrochi, o'z navbatida, o'zidan oldingi askiyachining tasvirlagan voqealariga mavzu doirasida hozirjavoblik bilan so'z o'yini qilishi talab etilgan. Bu o'rinda, albatta, askiyachilarning mavzuni mantiqiy davom ettirishlari uchun ulardan muayyan nazariy bilimlarni ham puxta egallagan bo'lishlari talab etiladi. Tahlil qilingan askiyada birinchi askiyachi gapning ega va kesimi borasida so'z boshlab, uning mantiqiy mazmunini dialogik nutqqa ko'chiradi. Ega kim ekanligi kesim esa eganing nima ish qilganligiga ishora bo'lib xizmat qilgan. Ikkinchi askiyachi til mavzusini olmosh va ergash gapga ulaydi. Garchi ergashgan bo'lak haqida gapirayotgan bo'lsa-da, **olmoshtirmay** turishni ta'kidlashda shevaga xos so'z qo'llash uslubidan mohirona foydalanib, olmoshga ishora qiladi. Dialogik nutq davomida fe'l sodda va yoyiq gap ham askiyachilar e'tiboridan chetda qolmaydi. Shu o'rinda askiyachilarning komik holatni u qadar chiroyli hosil qila olmaganligini kuzatishimiz mumkin. Odatda, askiyada metaforik ko'chim bo'lsa, aytilgan so'z yoki birikmaning tag ma'nosi ochiladi. Mazkur askiyada esa metaforik ko'chim hodisasi kuzatilmaydi. Faqat "so'zimning o'zagini so'rayverasiz", - degan gapdagi tag ma'no "o'zakni so'rayverish" leksik-semantik birligining ma'no maydonini kengaytirib, komik holatni yuzaga keltirgan.

Askiyachilar mavzuni talqin etishda mavzu doirasidagi tushunchalarning parallellarini topishi va birinchi semantik plandagi mazmunni ikkinchi semantik plandagi, ya'ni tag ma'nodagi mazmunga aloqalantirilishi bevosita parallellar vositasida amalga oshiriladi.

A.N.Veselovskiyning qayd etishicha, badiiy asarda qo'llaniladigan parallel bir necha xususiyatlarga ega bo'ladi. Bular parallellar tarkibida ko'chimlarning hosil bo'lishida ko'zga tashlanadi:

- 1) harakatning hayotning asosiy belgisiga yaqinlashadigan o'xshash belgilarning murakkabligi va xususiyatiga bog'liqligidan;
- 2) bu belgilarning hayot haqidagi tushunchamizga mos kelishidan, harakatda iroda namoyon bo'lishidan;
- 3) bir xil paralleli ko'rinishga sabab bo'lgan boshqa obyektlar bilan qo'shnilikdan;

4) hodisa yoki narsaning shaxsga nisbatan qadri va hayotiyligi haqida.

Jumladan, quyosh = ko‘z yonma-yon qo‘yish quyoshni tirik, faol mavjudot sifatida tasavvur hosil qilishga olib keladi. Shu asosda quyosh va ko‘zning tashqi o‘xshashligi asosida ularning ma’nolarini biridan ikkinchisiga o‘tkazish mumkin, ikkalasi ham porlaydi. Ko‘zning shakli boshqa taqqoslashlarni keltirib chiqarishi mumkin edi [19].

Umuman, so‘z san’atining boshqa turlari kabi askiyada ham mavzu voqelikni badiiy ifodalashning mazmuniy chegarasini belgilab beradi. Askiyaning ikki va undan ortiq ijrochilar tomonidan dialogik yoki polilogik nutq asosida taraf-taraf bo‘lib ijro etilishi, askiyada tasvirlangan voqea-hodisalar kulgi qo‘zg‘ashga qaratilishi asarda mavzuning mazmun chegarasini belgilab beruvchi badiiy unsur ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, askiyada mavzu qahramonlarning xarakterini ochish va tavsiflashga ham xizmat qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, mavzu bag‘rida asarning voqealari tafsiloti mujassamlashadi. Askiya matnlarida mavzu qahramonlarning xarakterini shakllantirish va qahramonlarning komik portretining yaratilishiga poetik imkon yaratuvchi badiiy element vazifalarini bajaradi.

Folklorning boshqa janrlarida bo‘lgani kabi askiyalarda ham ijtimoiy hayotimizdagi voqea-hodisalar badiiy bo‘yoqdorlik bilan tasvirlanadi. Voqea-hodisalarni badiiy bo‘yoqdorlikda tasvirlash uchun esa ijrochidan alohida badiiy mahorat talab etiladi. Askiya ijrochisining badiiy mahorati uning askiya mavzusi doirasida raqiblari tomonidan tashlangan luqmaga hozirjavoblik bilan mantiqan o‘zidan oldingi askiyachi tomonidan talqin etilgan hodisaning davomini izchillikda ifodalashi lozim. Bunday hollarda askiyachilar mubolag‘ali birikmalar, o‘xshatishlar, qiyoslashlar kabi badiiy ko‘chimning ko‘pgina turlaridan foydalanadilar. Askiya janrining ilk tadqiqotchisi R.Muhamadiyev yozganidek, “askiya o‘zbek xalqi og‘zaki ijodiyotining durlaridan bo‘lib, uning har bir yetuk payrovi badiiy adabiyot asarlari darajasiga ko‘tarila oladi. Askiya namoyandalari hayotni chuqur bilgan, bilimdon, o‘tkir zehnli, tasavvur va idroki kuchli kishilardir” [11]. Askiya ijrochisining badiiy tafakkur qamrovining kengligi,

zukkoligi, bilimdonligi uning askiya bellashuvida da'atan tashlangan luqmaga zukkolik bilan poetik javob qaytara olishida ko'rinadi.

Bizningcha, adabiy asarlardagi o'xshatishlar semantik ma'no anglatishiga ko'ra ikkiga bo'linadi. Xususan, askiya janridagi asarlarda o'xshatishning ikki xil ko'rinishi uchraydi: **1. Oshkora o'xshatish. 2. Pinhona o'xshatish.**

Oshkora o'xshatishda *-day, -dek* qo'shimchalari vositasida so'z qo'llaniladi. Masalan, "Hasharot" payrovida Ubaydulloning nutqiga e'tibor beraylik.

Ubaydullo: Brigadir paxtaga olgan o'g'itning bir qismini uyiga **chumolidek** tashiganga o'xshaydi. Odamlarga: "Tomorqamdagi ekinlar mo'l bo'ldi, olmanoklarim boshini egdi, O'RIGIM CHAKki emas", deb yurganmish". Mazkur misolda oshkora o'xshatish askiyachini chumoliga mengzash maqsadida qo'llanilgan *-dek* qo'shimchasi orqali ifodalangan. Ammo dorboz payrovidagi Foziljon askiyachining Ayniddin akaga qarata "Jaloliddinni taklif qilsak, ikkita toshni qo'lida, bittasini og'zida tishlab, bir o'yin ko'rsatsin-a, ishimiz juda samaraDOR bo'lardi-da" gapida o'xshatishning **pinhona** ko'rinishi qo'llanilgan. Gapda dorbozning tosh o'ynatishi tasvirlangan, biroq gapning tag ma'nosida esa toshning **bittasini og'ziga tishlab o'yin ko'rsatishini** bildirish vositasida tinglovchi xayoliga itning **og'ziga** nimanidir **tishlab o'yin ko'rsatishi** keladi. Askiyachi **pinhona o'xshatish** orqali komik shaxs qiyofasini obrazlantiryapti. Tinglovchilarning obrazli tasvirni tasavvur qilishlari va xayoliy tasavvuri ta'sirida kulgi qo'zg'alishi askiyada keng qo'llaniladigan pinhona o'xshatishning poetik vazifalaridan biridir.

Ko'rinadiki, askiyada kulgi **qo'zg'ash mexanizmi** mavjud bo'lib, tinglovchi tasavvurini komik tasvirlar bilan boyitish, uni qulog'iga chalingan ibora yoki gap orqali yangi, mutlaqo boshqa ma'no-mazmun kasb etuvchi kartinani tasavvur qilishga undash, alaloqibat beixtiyor kulgining maydonga kelishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagi tahlillarda ko'rib o'tganimizdek, kulgi **qo'zg'ash mexanizmi** bosqichma-bosqich o'z vazifasini amalga oshirib boradi. Bu **mexanizm abstrakt tushuncha bo'lib, askiya janridagi asarlarning mazmunida yashirin**

yashovchi, ammo undan ajratilgan holda namoyon bo'lmaydigan psixopoetik hodisadir.

Askiyada kulgi qo'zg'ash mexanizmi yetakchilik qilishini yuqoridagi misollarda ko'rib o'tdik. Askiyani biz bir tirik organizm sifatida qaraydigan bo'lsak, kulgi qo'zg'ash mexanizmi uning qon tomiri sifatida tushunilmog'i lozim. Kulgi qo'zg'ash mexanizmi hosil bo'lish o'rniga ko'ra turlicha bo'ladi. Xalq askiyalari va qiziqchiligida bu mexanizm hazil foniga singdiriladi:

Tesha qiziqchini ayrim o'zini bilmaganlar ta'qib ostiga olib, xalq o'rtasida chiqishiga to'sqinlik qila boshlayapti. Bu gap raykomgacha boribdi, u yerdagi ayrim xodimlar ham Tesha qiziqchining dindorlarni, ko'knorilarni tanqid qilishini yoqtirmay, uni kolxozdan haydashmoqchi bo'libdilar. Tesha qiziq raykomning birinchi sekretarining uyiga kelib, onasiga: "Har bir xonadonga hech bo'lmasa bitta tesha zarur-ku? O'g'lingizga shunday deb qo'ying!" – debdi-da qaytib keta beribdi [29].

Mazkur matn Tesha qiziq sarguzashti sifatida badiiy voqelikni tasvirlaganligini, uni bir kishi tomonidan ijro etilganligini inobatga olsak, uni askiya emas, balki kulgili hikoya sifatida talqin etishimiz lozim. Bu o'rinda og'zaki matn garchi askiyachi tomonidan ijro etilsa-da, kulgi qo'zg'ash uning bosh maqsadi bo'lgani bilan uning dialogik nutqqa asoslanmaganligi askiya janr tabiatiga to'g'ri kelmasligini ko'rsatib turibdi. Ammo kulgi qo'zg'ash mexanizmi Tesha akaning ismi anglatadigan semantik ma'no ko'lami bilan bog'liqlikda o'z ifodasini topgan. Raykom sekretarining uyiga borib, uning onasiga aytgan: "Har bir xonadonga hech bo'lmasa bitta tesha zarur-ku? O'g'lingizga shunday deb qo'ying!" – deb qaytib ketishidagi mantiqiy mazmun va harakat uyg'unligi yuqorida biz aytib o'tgan kulgi qo'zg'ash mexanizmini hosil qilgan.

Taniqli folklorshunos Muzayana Alaviya yozib olgan qiziqchilik matnlarida bir askiyachining qiziqchilik qilib bir necha askiyachilarga hazil qilgan hikoyalari bor. Quyida shulardan biriga e'tiborni qaratamiz:

Bir domla bola ko'rmabdi. Uni askiya qilib, domlapochchamiz, xo'rozni orqadan quvib yuriptila: "Bolama o'xshaydur ovozing sani", deb.

Teshavoy aka terakni quchoqlasa: “Xalq bilur oshiqligimni!”, deb-a.

Qori aka tovuqni quvib yursa-ya, “Yorim ketaman, deydi!” deb-a.

Tesha akamni ko‘rib, to‘nidan tortsam-a: “Qoshlari qalam-yey”, deb.

Tog‘am katta umochni g‘o‘zalar o‘rtasida sudrab yursa-ya, “E voh, sanam”, deb¹. Bu yerda bir askiyachining xalq qo‘shiqlarini payrov qilib, odamlarning kulgisiga sazovor bo‘lganligini kuzatamiz. Mazkur matnda ham ijrochi bir kishi, askiyaga xos payrov uslubi, oshkora o‘xshatish san‘atidan foydalanishi kabilar uning askiya janriga kiritishimizga asos bo‘ladigandek, biroq dialogik nutqning yo‘qligi va ijrochining bir kishi ekanligi bunga jiddiy to‘sqinlik qiladi, deb o‘ylaymiz.

XULOSALAR

Askiyada mavzu voqealarning mantiqiy uzvlarini belgilash, voqeahodisalarning tasvirlash chegarasini aniqlash, qahramonlarning xarakterini ochish va tavsiflashga ham xizmat qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, mavzu bag‘rida asarning voqealari tafsiloti mujassamlashadi;

Mavzu askiyachilar uchun kulgiga sabab bo‘luvchi obyektни tanlash, mavzu doirasida hozirjavoblik va zukkolik qilish mahoratini namoyish qila olish talablarini qo‘yadi;

Askiya matnida tag ma’noda anglashiladigan komik fabula kulgi qo‘zg‘ash mexanizmi vositasida shakllanib, tinglovchilarning badiiy-estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi;

Askiyada kulgi qo‘zg‘ash mexanizmi tinglovchilar kulgisining bosqichma-bosqich rivojlanib borishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.07.2023 yildagi PQ-222-sonli “Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori <https://lex.uz/docs/-6531520>
2. Andijon davlat universiteti folklor arxivi. Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 47-daftar.

¹ Кўрсатилган манба. Inv. №1510/18.

3. Do'smatov X.X. Askiya matnining lingvostilistikasi. Filol.fan.b. fals. dokt... diss. – Farg'ona, 2018. – 135 b.
4. Elxan Nəcəfovun. Ədəbiyyat nəzəriyyəsi. Boku, "HƏDƏF"// Vikipediya, azad ensiklopediya
5. Imomov K., Mirzayev T., Safarov O. va Sarimsoqov B. Askiya. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 340 b.
6. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: Barkamol fayz media nashriyoti, 2017. – 180 b.
7. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: Barkamol fayz media nashriyoti, 2017. – B.103.
8. Madayev O., Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: Sharq, 2005. – 208 s.
9. Mirzayeva S., Xolbutayev G'. Farg'ona vodiysi askiya san'ati – Andijon: Arjumand media, 2019. – 144 b.
10. Muhamadiyev R. Askiya (o'zbek xalq ijodiyotining janri). Filol.fan.nom.diss. – Toshkent, 1961. – 233 b.
11. Muxammadiyev R. (to'plovchi va nashrga tayyorlovchi) O'zbek xalq og'zaki ijodi. Askiya. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1970. – 288 b.
12. Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar san'ati. – Toshkent: Fan, 1971. – 244 b.
13. Qodirov M. O'zbek an'anaviy teatri. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 248 b.
14. Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati. – Toshkent, O'qituvchi, 1981. – 105 b.
15. Sultonov H. Askiya. Kulgi chehraning guli. – Toshkent: Cho'lpon, 1998. – 185 b.
16. Алексеев В.Л. Оружием политической сатиры. – М.: Мысль, 1979. – 244 с.
17. Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. монография, сборник работ. – М.: Художественная литература, 1986. – С.3. (общ. С.543)

18. Бахтин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. – М.: Художественная литература, 1990. – 543 с.
19. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – 404 с.
20. Дмитриев А.В. Социология юмора. – М., 1996. – 214 с. Лук А.Н. Юмор, остроумие, творчество. – М.: Искусство, 1977. – 184 с.
21. Карасев Л.В. Философия смеха. – М.: Рос. гуманитар. ун-т, 1996. – 224 с.
22. Лук А.Н. О чувстве юмора и остроумии. – М.: Искусство, 1966. – С. 31-32.
23. Материал wortwuchs.net сайтидан олинди.
24. Мухтар Казымоглы. Генезис и поэтика смеха в азербайджанском фольклоре. – Баку: Элм ве техсил, 2017. – 360 с.
25. Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – М.: Искусство, 1976. – 183 с.
26. Троицкая А.Л. Народный театр в Узбекистане // Восточный сборник. 1990. Вып. № 4. – С. 144-151.
27. Чернявский М.Н. Комедия Аристофана и античные теории смеха // Аристофан. – М., 1956. – С. 81-108
28. Чуякова Н. М. Сатира и юмор в устном народном творчестве адыгов: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – Майкоп, 2010. – С.27-28.
29. Xalq askiyalari, qiziqchiliklari // O‘z RFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti. ZO‘FA. Inv. №1510/18